



JAMOADA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 23.1-guruh
Talabasi Abdurashidova Shahzoda

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamoada shaxslararo munosabatlarning psixologik mazmuni, ularning shakllanish jarayonlari va rivojlanish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi muloqot, o'zaro idrok, empatiya, ijtimoiy rollar, konfliktlar va liderlik masalalari keng yoritiladi. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarning jamoa samaradorligi va shaxs psixologik holatiga ta'siri ilmiy asosda ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *jamoada, shaxslararo munosabatlar, muloqot, empatiya, ijtimoiy rol, konflikt, liderlik, psixologik muhit.*

KIRISH

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyat va jamoa bilan uzviy aloqada yashaydi. Har qanday jamoa- bu faqatgina shaxslar yig'indisi emas, balki murakkab psixologik tizimdir. Jamoada vujudga keladigan shaxslararo munosabatlar insonning ruhiy holati, o'zini anglash darajasi va ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida sog'lom shaxslararo munosabatlar samarali faoliyatning asosiy sharti hisoblanadi. Shu sababli ushbu maqolada jamoada shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlari har tomonlama tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Jamoada- bu umumiy maqsad, vazifa va qadriyatlarga ega bo'lgan shaxslar birlashmasidir. Psixologiya nuqtayi nazaridan jamoada shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Jamoada inson o'zining ijtimoiy tajribasini boyitadi, muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va shaxs sifatida kamol topadi.

Jamoaning psixologik iqlimi bilan belgilanadi. Jamoada o'zaro ishonch va harohlik mavjud bo'lsa, u barqaror va samarali bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlarning mohiyati va tuzilishi.

Shaxslararo munosabatlar jamoada a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan barqaror psixologik aloqalardir. Bu munosabatlar insonlarning bir-birini qanday qabul qilishi, baholashi va ularga qanday munosabatda aks ettiradi.

Shaxslararo munosabatlar uch asosiy komponentdan iborat:

Kognitiv komponent- boshqa shaxs haqida shakllangan tasavvurlar;

Hissiy komponent- simpatiya, antipatiya, hurmat yoki ishonch;

Xulq-atvoriy komponent- muloqot va hamkorlikdagi real harakatlar.



Mazkur komponentlar uyg'unlashganda ijobiy munosabatlar shakllanadi.

Shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Shaxslararo munosabatlar ko'plab omillar ta'sirida vujudga keladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Shaxsning individual psixologik xususiyatlari (temperament, harakter);

- Muloqot madaniyati va nutq qobiliyati;

- Tarbiya va ijtimoiy tajriba;

- Umumiy manfaat va qadriyatlar;

- Jamoaning psixologik iqlimi;

Agar ushbu omillar uyg'unlashsa, jamoada sog'lom va barqaror munosabatlar qaror topadi.

Muloqot jarayoni va uning psixologik ahamiyati:

Muloqot shaxslararo munosabatlarning asosiy vositasi bo'lib u ahborot almashish o'zaro tushunish hissiy bog'lanishni ta'minlaydi. Psixologik jihatdan samarali muloqot:

- Ochiq va samimiy bo'lishi;

- Tinglash madaniyatiga asoslanishi;

- Fikrni aniq va ravshan ifodalashni talab etadi.

Muloqot yetarli bo'lmagan jamoalarda tushunmovchilik va konfliktlar ko'payadi.

Empatiya va o'zaro tushunish

Empatiya-bu boshqa insonning his-tuyg'ularini tushunish va ularni his eta olish qobiliyatidir. Empatiya rivojlangan jamoalarda o'zaro yordam, hamjihatlik va ijtimoiy qo'llab quvvatlash kuchli bo'ladi. Psixologlar empatiyani shaxslararo munosabatlarning muhim tayanchi deb hisoblaydilar.

Jmoada konfliktlar va ularning psixologik xususiyatlari.

Konflikt- bu manfaatlar, qarashlar yoki ehtiyojlarning natijasida yuzaga keladigan ziddiyatdir. Jamoada konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, ularni to'g'ri boshqarish muhimdir.



Psixologik jihatdan konfliktlar:

- Konstruktiv (ijobiy natija beruvchi);
 - Distruktiv (salbiy oqibatli) turlarga bo'linadi.
- To'g'ri hal etilgan konflikt jamoani yanada mustahkamlaydi.

Liderlik va psixologik muhit

Lider jamoada shaxslararo munosabatlarning yo'naltiruvchisi hisoblanadi.
Psixologik jihatdan kuchli lider:

- Adolatli va ma'suliyatli bo'ladi;
- Jamoani birlashtira oladi;
- Ijobiy muhit yaratadi;
- Har bir a'zoning imkoniyatini inobatga oladi.

Liderlik sifati jamoani umumiy psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Jamoadagi shaxslararo munosabatlar murakkab, ammo muhim psixologik jarayon hisoblanadi. Ular jamoaning barqarorligi, samaradorligi va shaxsning ruhiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sog'lom shaxslararo munosabatlarni shakllantirish uchun muloqot madaniyatini rivojlantirish, empatiyani kuchaytirish va konfliktlarni samarali boshqarish zarur. Jamoa a'zolari o'rtasida shakllanadigan munosabatlar nafaqat umumiy faoliyat samaradorligini belgilaydi, balki har bir shaxsning ruhiy holati, o'zini jamoaning muhim a'zosi sifatida his etishi va shaxsiy rivojlanish darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom shaxslararo munosabatlar mavjud bo'lgan jamoalarda ishonch, hamkorlik va ijobiy hissiy muhit ustuvor bo'lib, bu esa jamoaviy maqsadlarga erishishni osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Andreeva.G.M. Ijtimoiy psixologiya. -Moskva, 2017.
- 2.Myers.D.G. Social psychology- New York, 2021.
- 3.Nemov.R.S. Psixologiya. -Moskva, 2018.
- 4.Karimova.V.M. Ijtimoiy psixologiya. -Toshkent, 2020.
- 5.G'oziev.E. Umumiy psixologiya. -Toshkent: o'qituvchi, 2019.